



O'Z QATLAM VA O'ZLASHGAN QATLAMGA OID FITONIMLAR

Abdubannonova Sharifaxon Nosirjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tiliga boshqa qardosh va qardosh bo'lmagan tillardan o'zlashgan fitonimlar va ularning o'zlashshish tamoyillari haqida hamda fitonimlarni rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlarning ishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Fitonim, semantik birliklar, suffiks, prefiks, leksikologik tizim, leksik-semantik uslub, morfologik usul, morfologik-sintaktik usul.

Аннотация. В данной статье анализируются работы ученых, внесших свой вклад в развитие фитонимов и принципов их усвоения фитонимов, заимствованных из других родственных и неродственных языков в узбекский язык.

Ключевые слова: Фитоним, семантические единицы, суффикс, префикс, лексикологическая система, лексико-семантический метод, морфологический метод, морфолого-синтаксический метод.

Abstract. This article analyzes the work of scientists who have contributed to the development of phytonyms and the principles of their assimilation of phytonyms borrowed from other related and unrelated languages into the Uzbek language.

Key words: Phytonym, semantic units, suffix, prefix, lexicological system, lexico-semantic method, morphological method, morphological-syntactic method.

O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardany o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. "Turli tarixiy davrlarda xalqlar o'zaro turli aloqa, munosabatda bo'ladilar. Ijtimoiy sharoit va munosabatlarning xususiyatlariga ko'ra, bir tildan ikkinchi tilga ozmi, ko'pmi so'z, hatto ayrim grammatik elementlarning o'tishi ham shubhasizdir. Biz tilning ikkinchi bir tilga ko'rsatgan ta'siri salmoq va xarakteriga ko'ra tilning tarixiy taraqqiyotida ma'lum bir rol ni o'ynashi ham mumkin", – deb yozadi F.Abdullayev.

O'zbek tili leksik taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim o'zgarishlarni hisobga olgan holda ma'lum bir davr bosqichlari asosida o'rganish mumkin. O'rta Osiyo o'simlik nomlari haqida gapirilganda, o'zbek va tojik o'simlik nomlari o'xshashligi, bu ikki xalqning hududiy joylashuvi bilan bog'liq. IV-VII asrlardan O'rta Osiyoda ikki turdagi xalq, ya'ni hudud vohalarida dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi aholi va ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi mavjud bo'lgan.

Tojiklar qadimiy Eron tilida so'zlashuvchi mahalliy aholining avlodlari hisoblanadi. Tojikiston hududida ular eramizga qadar bir necha yil oldin yashagan.



VIII-X asrlardan (arablar istilosidan) keyingi davrda, ular doimo dehqonchilik va bog'dorchilik bilan band bo'lishgan. XII-XIII asrlarda Amudaryo va Sirdaryo oraliqlarida turkiy tilda so'zlashuvchi xalq o'zbeklar soni orta borgan. XIII asrda mo'g'ullar istilosi, XVI asrda Oltin O'rdaning yemirilishi va Dashti qipchoq urug'larining ortishi hududdagi madaniyatning, mehnat faoliyatining o'zgarishiga olib kelishi barobarida o'simlik nomlarining shakllanishiga asos bo'lgan.

Turkiy til sifatida yuritilgan o'zbek tili tarixan O'rta Osiyo xalqlari uchun bir necha yil mobaynida fors (fors-tojik) tili bilan bir vaqtda iste'molda bo'ldi. Uzoq vaqtli ma'lumot natijasida til omuxtalashishi sezilarli darajada har ikkala til leksik qatlamiga ham ta'sir qildi. O'zbek tili leksik qatlamiga yangi so'zlar, forsiy izofalar, iboralar, hattoki so'z yasovchi qo'shimchalar ham kirib keldi. Bunday so'zlar avvalo manhum, keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo'lmas holatda o'rinishdi. Turkiy va forsiy tillarning bunday omuxtalashish jarayoni V asrdan X asrgacha sezilarli darajada davom etdi. X asrdan boshlab asarlarning fors tilida yozilishi sezilarli darajada susaydi. Somiy tillar orasiga kiruvchi arab tili turkiy tillarga til oilalari jihatidan uzoq hamda fonetik va grammatik jihatidan ancha murakkab bo'lganligi uchun turkiy qavm orasidan kam miqdordagi kishilargina bu tilda mukammal asar yozish uchun jur'at qila olar edi. Ma'lum yillar davomida arab tili bilan muttasil shug'ullanib, arab davlatlarida yashab, bu tilni sinchiklab o'rgangan ijodkorlarga bu tilda mukammal asarlar yozishga kirishdilar. Misol tariqasida qomusiy ijod sohibi, qomusiy orlim Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasiga oid "Al-Mufassal" asarini yozishini va unga "Arablar va g'ayriarablar ustozlari" sharafli nomning, unvonning berilishini fikrimiz dalili sifatida keltirishimiz mumkin. VII-VIII asrda boshlangan arab istilosidan so'ng islom madaniyati ta'siri bilan birga leksikamizga, avvalo, diniy-ma'rifiy tushunchalar, keyinchalik esa keng qamrovli arabcha so'zlar qatlami kirib keldi. Aholining islom diniga katta e'tibor qaratishi, arab tiliga bo'lgan ishtiyoq va qiziqish natijasida xalqimiz orasida arab tili ilm-ma'rifat tili darajasiga ko'tarildi. Natijada arab tili o'z davrida islom madaniyatiga asoslangan xalqlar uchun ilm-fan tili – baynalmilal til vazifasini bajardi. Bir tildan boshqa tilga, jumladan, boshqa tillardan o'zbek tiliga so'z o'zlashishi yozma yoki og'zaki nutq orqali bo'ladi. Masalan, arabcha



o‘zlashmalarning ko‘pchilik qismi yozma manbalar orqali o‘tgan. Tojikcha so‘zlarning o‘zlashishida esa og‘zaki nutq ham muhim rol o‘ynagan.

Fors tilining xalqimiz hayotida o‘z mavqeyini yo‘qota borishi O‘rta Osiyoda Uyg‘onish (renesans) davrining buyuk vakili Alisher Navoiy davrigacha davom etdi. Shundan keyingi davrdagi devon va asarlarning forscha yaratilishi adiblarimizning zullisonaynlik mahoratini ko‘rsatish maqsadida bo‘ldi. Buning muhim tomoni shundaki, tilimizning shunday ko‘p yillik omuxtalashish jarayonida ham leksik qatlamining katta qismi o‘z til so‘zlari hisobiga saqlab qolgani quvonarli hodisadir. Zeroki, leksikamizdagi o‘zlashma so‘zlar hisobi hozirgi davr fors tili leksikasiga qiyoslanadigan bo‘lsa (ayrim mutaxassislarning ta’kidlashicha, bu til leksik qatlamining 65% ini arabcha so‘zlar tashkil etadi), yuqoridagi holat nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligini va bugungi kunda fors millati uchun til sofligini saqlash davlat ahamiyatidagi masala sifatida turgani ma’lum bo‘ladi.

Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo‘g‘ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo‘shnichilik munosabatlari ham o‘zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta’sir o‘tkazgan, bunda ayniqsa, turkiy-arab, o‘zbek-arab, o‘zbek-tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qirg‘iz va o‘zbek-turkman billingvizmi kabi omillarning roli katta bo‘lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtai nazaridan qaralganda, o‘zbek tilidagi o‘simlik nomlarini quyidagi qatlamlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Umumturkiy tildagi o‘simlik nomlari;
2. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan o‘simlik nomlari;
3. Arab tilidan o‘zlashgan fitonimlar.
4. Rus tili va rus tili orqali boshqa g‘arb tillaridan o‘zlashgan o‘simlik nomlari.

XIX-XX asrlarda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o‘zgarishlar tilda ham o‘z aksini topa boshladi. Bu davr so‘zlarning o‘zlashish va so‘zlarning iste’moldan chiqib ketish jarayoning tezlashgan davri bo‘ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta jurnallarning chop etilishi bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Bu davrning muhim hususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so‘zlar, balki ko‘plab inglizcha, xitoycha, fransuzcha, ispancha kabi tillardan so‘zlar rus tili orqali kirib kelgan bo‘lsa, leksikamizdagi ko‘p miqdordagi forscha-arabcha so‘zlar nafaol so‘zlarga aylandi yoki iste’moldan chiqib ketdi.



Umumturkiy tildagi o‘simlik nomlari. Bu fitonimlar eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha qo‘llanilib kelmoqda: sachratqi, maymunjon, yulg‘un, kurak, shuvoq, qizilcha, qulmoq, qichitqi, yetmak, mavrak, marmarak, zupturum, isiriq, semizo‘t (semizak), temirtikan, otquloq kabi.

SACHRATQI – o‘simlik nomi. Bu fitonim nomi XIII-XIV asrga taalluqli muallifi noma‘lum “Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya” asarida sachratqi shaklida berilgan.

Sachratqi - so‘zining etimologiyasi to‘g‘risida E.V.Sevortyan umumturkiy narsa nomi yasovshi–qi affiksining sachra, sachrat– asosiga qo‘shilishi, ya‘ni sachra, sachrat, sachratqi va natijada har xil fonetik ko‘rinishlarga ega bo‘lgan asosiy ma‘nosi sachratqi kelib chiqqan, deb tushuntiradi.

Qoraqalpog‘iston o‘zbeklari hududda qoraqalpoq, qozoq, turkman xalqlari vakillari bilan yonma-yon qo‘shni bo‘lib yashashadi. Bu esa mazkur hududdagi o‘zbeklar tiliga turkiy xalq tillarining ta‘siri katta bo‘lishiga olib keladi.

Qoraqalpog‘iston hududi o‘zbek shevalarida *semizo‘t* fitonim hisoblanib, ular hududda yashovchi qoraqalpoq, qozoq va turkman tillarida ham ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan uchraydi. Masalan, *semizak* kabi.

2. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan fitonimlar. O‘zbek va tojik xalqlari qadimdan bir hududda (yoki qo‘shni), bir xil ijtimoiy tuzumda yashab kelgan va madaniy, savdo-sotiq munosabatlarda bo‘lgan. Bu ijtimoiy omillar hudud xalqi tiliga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bundan tashqari, fors-tojik tillaridagi so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida o‘rni bor:

1. O‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining keng tarqalganligi;
2. Tojik va fors tillarida ijod qilish an‘analarining uzoq yillar davom etganligi;
3. Adabiyot, san‘at, madaniyat, urf-odatlardagi mushtaraklik va boshqalar.

Bunday omillar o‘simlik nomlarining tarkibida ham o‘z aksini topgan. O‘rganilayotgan hudud shevalarida ham fors-tojik tilidan fitonimlar uchraydi. Masalan, *sebargi, tuxumak, olcha, suman, sedana, zira, atirgul, bangidevona, gulxayri* kabi.

3. Arab tilidan o‘zlashgan o‘simlik nomlari. Arab tilidan so‘zlarning o‘zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so‘z o‘zlashtirilishiga quyidagi omillar sabab bo‘lgan: a) arablar istilosi; b) islom dinining



keng tarqalganligi; v) arab yozuvining qo'llanila boshlaganligi; g) madrasalarda arab tilining o'qitilishi; d) turkiy-arab ikki tilliligining tarkib topganligi; e) olimu fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar.

O'zbek tiliga arab so'zlari shunchalik singib ketganki, hozirgi davrda arab so'zlarining o'zbekcha yoki arabcha ekanligini ajratish qiyin bo'lib qoladi. Bu holat fitonimlarda ham o'z aksini topadi. Bunday nomlarga: *zanjabil*, *za'faron*, *zaqqum*, *na'matak*, *sano* kabilarni kiritish mumkin.

4. Rus tili va rus tili orqali g'arb tillaridan o'zlashgan o'simlik nomlari.

O'zbek tiliga rus tilidan so'z o'zlashtirilishiga ko'proq quyidagi omillar sabab bo'lgan: a) Chor Rossiyasining imperialistik siyosati; b) Sovet imperiyasida rus tilining millatlararo til mavqeiga ega bo'lishi; v) o'zbek-rus ikki tilliligining tarkib topishi; g) matbuot, radio, televideniya rus tiliga keng o'rin berilishi va boshqalar.

Bunday omillar fitonimlarda ham o'z aksini topgan. Rus tili va rus tili orqali g'arb tillaridan o'zlashgan o'simlik nomlari o'rganilayotgan hududda ancha keng tarqalgan.

Jumladan, rus tilidagi katarantus so'zi o'zbek tilida hamishabahor, *iris* – *gulsapsar*, *imbir* – *zanjabil*, *malina* – *xo'jag'at*, *podorojnik* – *zupturum*, *baqayaproq*; *pion* – *sallagul*, *kalendula* – *tirnoqgul*, *oblepixa* – *chakanda*, *jirg'anoq*; *sosna* – *qarag'ay*, *shafran* – *za'faron*, *shavel* – *otquloq*, *xren* – *yerqalampir* kabi nomlar bilan uchraydi.

Rus tilidan o'zlashgan o'simlik nomlariga: *kaktus*, *malina*, *lavanda*, *dafna*, *jenshen*, *smorodina*, *geran*, *aloe*, *astra*, *cherkez*, *efedra* kabilar kiradi.

O'simlik nomlari orasida umumturkiy, arab, fors-tojik, rus tili va rus tili orqali boshqa g'arb tillardan o'zlashgan nomlardan tashqari, ularning bo'laklaridan biri yoki yasovchisi boshqa-boshqa tillar materiallari bo'lgan nomlar ham anchagina qismni tashkil qiladi. Ularning tuzilishi quyidagi qatlamlardan iborat: *limono't* (*ruscha+umumturkiy*), *tirnoqgul* (*o'zbekcha+forscha*).

Shuningdek, o'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida *astira*, *alloyi*, so'zlarida tovush orttirillishini kuzatamiz. Bunday hodisa tilshunoslikda epiteza deyiladi.

Shuni ham qayd qilish kerakki, o'simlik nomlarida ikki holat ko'zga tashlanadi. Birinchisi shuki, eng qadimgi davrlardan buyon qo'llanilib kelayotgan va hozir ham



amalda bo'lgan o'simlik nomlari o'zbek tilida umumturkiy, arab, fors-tojik tillari asosida hosil qilingan va ular qo'llanishda davom qilib kelmoqda. Ikkinchidan, nisbatan keyin paydo bo'lgan, rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan o'simlik nomlari og'zaki nutqda rus tilidagi variantlari asosida qo'llanilmoqda, ba'zan ular yozma nutqda, matbuot sahifalarida yarim kalka asosida tarjima qilinib ishlatilmoqda. Bu ham mazkur nomlarni o'zbek tili negizida hosil qilishga bo'lgan urinishning bir ko'rinishidir.

Bunday fitonimlar o'zbek tili qonun-qoidalariga fonetik va grammatik jihatdan o'zlashib, o'zbek tilining o'z so'zlari kabi taassurot qoldiradi. Ularning kelib chiqish ildizlarini bilish uchun maxsus etimologik izlanishlar olib borishga to'g'ri keladi. Xalq esa, bu so'zlarni aniq tushunadi va ularni o'zlarining til aloqalarida faol qo'llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. Toshkent. – 1983.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Toshkent: Fan, 1985
3. Mengliyev B., Sayfullayeva R., M.Qurbonova Hozirgi o'zbek tili Toshkent, 2007.
4. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - T.: O'qituvchi, 1995. - 127 b.
5. Омонов, В. (2021). Геология терминологиясининг долзарблиги. Scienceweb academic papers collection.
6. Sevortyan E.V. Etimologisheskiy slovar tyurkskix yazikov. T. I. M.: Nauka, 1977. S. 24.



ILMIY NASHRLAR MARKAZI